



Conceptualization and categorization as factors in the formation of categories

Feruza MAMATOVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

Conceptualization,
categorization,
categories,
thinking, cognitive process,
language and consciousness,
concept formation,
cultural context.

ABSTRACT

This article is dedicated to elucidating the role of conceptualization and categorization processes in the formation of categories in human cognition. Conceptualization is the process of perceiving objects and phenomena based on common features, comprehending them, and shaping them into conceptual forms. Categorization creates order in thinking by classifying these concepts into specific categories and grouping them together. These processes enable the systematization of reality in the human mind, facilitating understanding and expression during communication. The article demonstrates that conceptualization and categorization are inextricably linked with language, thought, culture, and cognitive processes. It also substantiates that the formation of categories depends not only on individual thinking but also on the linguistic and cultural norms prevalent in society. This reveals the dynamic and context-dependent nature of categories.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp73-78>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Konseptualizatsiya va kategorizatsiya (toifalanish) toifalarning vujudga kelishi omili sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Konseptualizatsiya,
kategorizatsiya,
toifalar,
tafakkur,
bilish jarayoni,
til va ong,
tushuncha shakllanishi,
madaniy kontekst

Ushbu maqola konseptualizatsiya va kategorizatsiya jarayonlarining inson tafakkurida toifalarning shakllanishidagi o'rnini yoritishga bag'ishlangan. Konseptualizatsiya – bu obyekt va hodisalarni umumiy belgilar asosida idrok qilish, ularni anglab, tushunchaviy shaklga keltirish jarayonidir. Kategorizatsiya esa bu tushunchalarni muayyan toifalarga ajratish, ularni guruhlariga birlashtirish orqali tafakkurda tartib yaratadi. Mazkur jarayonlar inson ongida borliqni

¹ PhD, Associate Professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. E-mail: eruzahon26@gmail.com

tizimlashtirish, uni tushunish va muloqot jarayonida ifodalash imkonini beradi. Maqolada konseptualizatsiya va kategorizatsiyaning til, tafakkur, madaniyat va bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, toifalarning shakllanishi nafaqat individual tafakkurga, balki jamiyatda mavjud bo'lgan til va madaniy me'yorlarga ham bog'liq ekanligi asoslab beriladi. Bu esa toifalarning dinamik va kontekstga bog'liq xarakterini ochib beradi.

Концептуализация и категоризация как фактор возникновения категорий

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Концептуализация,
категоризация,
категории,
мышление,
процесс познания,
язык и сознание,
формирование понятий,
культурный контекст.

Данная статья посвящена освещению роли процессов концептуализации и категоризации в формировании категорий в человеческом мышлении. Концептуализация – это процесс восприятия объектов и явлений на основе общих признаков, их осмысления и приведения к понятийной форме. Категоризация же создает порядок в мышлении путем разделения этих понятий на определенные категории и объединения их в группы. Эти процессы позволяют систематизировать реальность в сознании человека, понять ее и выразить в процессе коммуникации. В статье показана неразрывная связь концептуализации и категоризации с языком, мышлением, культурой и процессами познания. Также обосновывается, что формирование категорий зависит не только от индивидуального мышления, но и от языковых и культурных норм, существующих в обществе. Это раскрывает динамический и контекстуально-зависимый характер категорий.

KIRISH

Bugungi kunda bu masalalar kognitiv tilshunoslik, xususan, toifalashtirish nazariyasi fani sifatida tan olingan kognitiv semantika uchun ham asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shubhasiz, mavjud muammolardan biri – bu real dunyodagi farqlar bilan til vositalari orqali aks ettirilgan farqlar o'rtasidagi nisbatdir. Voqelikning cheksiz xilma-xilligini tilning cheklangan shakllari qanday qamrab olishi haqidagi savol kognitiv tilshunoslikda, xususan prototipik semantikada markaziy o'rinni egallagan asosiy masalalardan biriga aylandi [1; 99].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Olingan bilimlarni tasniflash imkoniyatlari va yo'llari til toifalari bilan ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar shug'ullanadi: A. Vejbitskaya, J. Lakoff, R. Leneker, E. Rosh, J. Fokone, G. Giyom, F. Rastye (F. Rastier), B. Grunig (B.-N. Grunig), J. Dener (G. Denhière), D. Dyubua (D. Dubois), J. Rishar (J.-F. Richard), K. Vandeluaz (C. Vandeloise), A. Borillo (A. Borillo), J. Dekle (J.-P. Desclés), (G. Kleiber) J. Kleber, R. Marten, P. Kadyo (P. Cadiot); N.D. Arutyunova, O.V. Aleksandrova, A.N. Baranov, N.N. Boldirev, S.G. Vorkachev, V.Z. Demyankov, D.O. Dobrovolskiy, A.A. Zalevskaya, V.I. Zabotkina, V.I. Karasik, A.A. Kibrik,

V.V. Kolesov, Ye.S. Kubryakova, V.A. Maslova, Z.D. Popova, Ye.V. Raxilina, G.G. Slishkin, Yu.S. Stepanov, I.A. Sternin, R.M. Frumkina, T.V. Chernigovskaya, A.P. Chudinov va boshqalar. Toifalashning turli jihatlarini M.V. Shamanova tomonidan o'rganilgan bo'lib, u muloqot toifasi materiallari asosida ishlab chiqilgan. Rus lisoniy ongida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan kommunikativ toifani o'rganishning keng qamrovli metodologiyasi, D.B. Kumaxova olamning maqolga asoslangan manzarasida voqelikning baholovchi tasnifini ajratib ko'rsatgan, L.S. Abrosimova so'z yasash jarayonlarini tavsiflagan toifalashtirish, M.N. Konnova vaqtinchalik toifalashtirishni o'rgangan, I.Yu. Bezukladova makonni toifalashtirish haqida fikr yuritgan, Ye.V. Dzyuba xususiyatlarni tahlil qilgan. Rus lisoniy ongida voqelikning lingvokognitiv tasnifi, Z.A. Manzullina tomonidan ularning lisoniy tasnifida gender stereotiplarini taqqoslagan. O'zbek olimlaridan D.U. Ashurova, M.R. Galiyeva, Sh.S. Safarov, A.E. Mamatov, D.B. Agzamova va boshqalar kognitiv tilshunoslikda rivojlanib kelayotgan bu soha salmoqli hissa qo'shib kelishmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson olamining kognitiv manzarasini shakllantirish yo'llaridan biri – bu toifalashtirish yoki tafakkur jarayonlari bo'lib, ular bilish jarayonlarini, obyektiv voqelikning inson ongida aks etishini ko'rsatadi. Bu jarayonlar o'xshashlik asosida tanib olish, tuzilmaviy yaxlitlik sifatida qabul qilinadigan atrofdagi dunyo hodisalari o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va har doim ham “kognitiv tejamkorlik” maqsadida bo'lmagan taqqoslashlar bilan tavsiflanadi [2; 251-270]. Lyudvig Vitgenshteynga ko'ra, toifalanish jarayonlari insonning “xususiy holatlarning umumiy xususiyati bo'lgan umumiy tushuncha g'oyasini,” “go'zallik barcha go'zal buyumlarning tarkibiy qismi ekanligini” ifodalash qobiliyatini belgilaydi [3; 13; 122]. M. Xaydegger toifalanishdagi munosabatlarni bir turdagi umumiy narsada mavjudlik, birgalikda mavjudlik, mavjudlik sifatida ta'riflaydi [4; 73]. M. Fuko esa “tafakkur hodisalarni tartibga soladi, ularni sinflarga ajratadi, ularning o'xshashligi va farqini anglatuvchi nomlar bo'yicha guruhlaydi,” deb ta'kidlaydi [5; 30]. Toifalarning shakllanishi insonning hayotiy faoliyatiga bog'liq bo'lib, bu borada vaziyatli yoki kontekstual deb qaraladi. Toifalar orasidagi chegaralar bir ma'noli aniqlanmaydi, bu esa subyekt tomonidan obyekt yoki hodisani biron-bir toifaga kiritishning imkonsiz bo'lgan holatlarda o'z tasdig'ini topadi [6].

N.N. Boldirevning fikricha, toifalanish jarayonlarini voqelikdagi biror obyekt yoki hodisani, shuningdek mavhum ma'noni ma'lum bir toifaga fikran bog'lash sifatida ko'rish mumkin. Bu toifa atrofdagi voqelikning u yoki bu qismi haqidagi bilimlar tizimidagi lingvokognitiv hujayra sifatida tushuniladi [7; 115]. Olamni anglash natijasida paydo bo'lgan kognitiv toifalar o'xshash xususiyatlarni birlashtirish asosida shakllanadi va til vositalari orqali qisman ifodalanadi. Bu jarayon tabiiy tillar atrofdagi voqelikni aqliy tizimlashtirish natijalarini namoyon etganda kuzatiladi. Ye.V. Dzyubaning ta'kidlashicha, kognitiv toifalar bilimlarining so'zlar bilan ifodalanishi *lingvokognitiv kategorizatsiyani* tashkil etadi. Bu jarayon umumiy kategorizatsiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, “kognitiv tanlov – kognitiv identifikatsiya va kategorizatsiya – kategorial nomlash” kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi [8; 96, 464-465]. N. Delbek voqelikni kognitiv tushunish jarayonlarini quyidagicha tavsiflaydi: inson → voqelikni idrok etish → (anglash) noverbal konseptlarni va toifalarni shakllantirish → noverbal / verbal konseptlar va toifalarni shakllantirish [9; 35].

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, tadqiqot ishimizda ingliz va o'zbek tillaridagi olamning lisoniy manzarasining variantlarida antropofenomenlarning ijtimoiy-madaniy hamda ijtimoiy-psixologik tabiatiga hos bir qator subfenomenlarning kontseptuallashuvi va toifalanishini tahlil qilinishiga qaratilgan.

Konsept, tushuncha, har qanday predmet yoki bizning tadqiqot ishimiz misolida turli fenomenlarni kategorizatsiyasida besh asosiy tamoyil belgilab o'tiladi, ularning birinchisi bu prototiplilik tamoyili, ikkinchisi toifalarning qat'iy emas ekanligi tamoyili, uchunchisi toifalash asoslarining ko'pligi va xilma-xilligi, to'rtinchisi uzluksizlik tamoyili va beshinchisi darajalanganlik tamoyili. Kognitiv tilshunoslikda kategorizatsiya jarayonini to'laqonli yoritish uchun markaziy tushunchlardan biri bu prototip va asosiy darajadagi ob'yektdir. Toifa unga tegishli teng maqomga ega bo'lmagan yani belgilari to'liq mos tushmaydigan a'zolarini bir nuqtaga jamlaydi. Shunday a'zoldan biri prototip hisoblanib, u boshqa a'zolarga nisbatan imtiyozli mavqega ega bo'ladi. Shu o'rinda, toifalanayotgan guruhda namunaviy ko'rsatkichni ko'rsatadi va u yoki bu toifaga ajralishida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu prototip atrofida toifaning boshqa a'zolari ham guruhlanadi. E. Rosh birinchilardan bo'lib keyinchalik prototiplar va asosiy darajadagi toifalar nazarayasi deb nom olgan nazariyani taklif qilgan. Olima nazariyasini ishlab chiqishi jarayonida an'anaviy nazariyani har tomonlama tanqidiy tahlil tortdi. Zero, klassik nazariyaga ko'ra, toifani aniqlovchi belgilar boshqa barcha a'zolar o'rtasida taqsimlanadi va shu sababli toifada teng mavqega ega bo'ladi. E. Roshning prototip tadqiqotlari toifa a'zolari orasidagi asimmetriyani va toifa ichidagi tuzilmalarning aimmetriyasini ko'rsatdiki. Binobarin, an'anaviy nazariya buni ko'zda tutmaganligini hisobga olinsa, an'anaviy nazariyani yoki to'ldirish yoki boshqa nazariyani taklif qilish ehtiyoji yuzaga chiqdi, Rosh esa aynan shuni amalga oshirdi [10; 63].

Inson ongi voqelikni idrok etar ekan, uning ayrim bo'laklarini muayyan turkumlarga, toifalarga kiritadi – boshqa bo'laklar bilan umumiylik belgilarini aniqlaydi va ushbu toifani boshqalardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi. Voqelik bo'laklarining umumiylikni aniqlash va tafakkur orqali bu umumiylik uchun umumlashtiruvchi tushunchani ishlab chiqish, bu ko'pincha (lekin majburiy emas) qabul qilinadi so'z bilan mustahkamlash kognitiv jarayon sifatidagi toifalashtirishni ifodalaydi. Bizning fikrimizcha, kognitiv jarayon sifatida tasniflashning natijasi kognitiv tasniflash belgilarining shakllanishi bo'lib, ular tushunchalar guruhlarida aniqlanadi va alohida konseptlarda namoyon bo'ladi. Kognitiv tasnifiy belgilar konseptlar va ularning guruhlarini yagona konseptosferada tartibga soladi.

Konsept doirasida kognitiv tasnifiy belgilar konsept mazmunini tashkil etuvchi ko'p sonli differensial kognitiv belgilarni yagona tuzilmaga tartibga soladi. Mental hodisa sifatida konsept strukturasining asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan kognitiv differensial belgi va kognitiv tasnifiy belgi tushunchalarini keltirish lozim.

Kognitiv differensial belgi (yoki oddiygina – kognitiv belgi) – bu inson ongi tomonidan anglangan va tegishli konsept tarkibida uning mazmunining alohida elementi sifatida aks ettirilgan obyektning alohida belgisidir.

Kognitiv tasnifiy belgi – bu konsept mazmunining u yoki bu jihatini, tegishli obyekt yoki hodisani toifalash parametrini aks ettiruvchi va konsept tuzilishidagi bir xil differensial kognitiv belgilarni umumlashtiradigan tarkibiy qismidir. Tasnifiy kognitiv belgilar har doim qator, guruh yoki ko'plab konseptlar uchun umumiy hisoblanadi [11; 90].

Dunyoda mavjud barcha ikki bir-biriga qarama-qarshi hususiyatli tushunchalar alohida guruhlarda jamlanadi. Masalan, ta'm kognitiv tasnifiy belgisi tegishli tuzilmada differensial kognitiv belgilar (achchiq va shirin) orqali konkretlashtiriladi. Yoki, o'lcham kognitiv tasnifiy belgi uzun, o'rta uzunlikdagi, va kalta kabi turlari differensial kognitiv belgilarga konkretlashtirilgan.

Ma'lumki, J. Lakoff birinchilardan bo'lib ilmiy tadqiqot doirasida **klassifikator** tushunchasini qo'llagan. Uning «Мышление в зеркале классификаторов» nomli maqolasida dunyoning turli xalqlari huddi bir xil bo'lgan voqeliklarni mutlaqo kutilmagan tarzda tasniflashini aytib o'tadi. Har bir madaniyatda tajribaning o'ziga xos sohalari (baliq ovlash, ovchilik va boshqalar) mavjud bo'lib, ular tushunchalar zanjirining toifalardagi bog'lanishlarni belgilaydi; dunyoning ideal modellari, shu jumladan miqlar va turli e'tiqodlar ham toifalar zanjirida aloqalarni o'rnatishi mumkin; o'ziga xos bilim tasnif jarayonida umumiy bilimdan ustun keladi va hokazo. Olimning fikricha, tasniflashning asosiy tamoyili tajriba sohasi tamoyilidir. J. Lakoff dunyoni tushunishda kognitiv modellar qo'llaniladi degan xulosaga keladi. Bu modellar insonning cheklangan tajriba qismini anglashga va uni o'zi tomonidan idrok etishga yordam beradi. Klassifikatorlar tizimi tafakkurning tajribaviy, obrazli va ekologik jihatlarini aks ettiradi [12; 12-51]. Ta'kidlab o'tish joizki, tasniflagichlar (klassifikatorlar) faqatgina insonning tafakkuri tomonidan yaratilgan aqliy toifa hisoblanadi. Inson voqelikni tahlil qilish tajribasidan tasniflash toifalarini chiqaradi va keyinchalik ularni idrok etiladigan va tushunilayotgan voqelikka tatbiq etadi. Shu o'rinda Z.D. Popova va I.A. Sternin har qanday narsa yoki hodisaga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan *universal* kognitiv super tasniflovchi kognitiv belgilarni ajratib ko'rsatsa bo'ladi degan g'oya bilan chiqadi. Masalan, bunday belgilarga, shubhasiz, vaqt xususiyati, makon xususiyati, umumiy baho va his-tuyg'ular kiradi [10; 91]. Bundan tashqari bu olimlar sinflarning tasnifiy belgilari, asosan u yoki bu turdagi faktlarni – artefaktlar, mentefaktlar va naturfaktlarni tavsiflovchi xususiyatlar, yanada *kamroq umumlashtirilgan* tasnifiy belgilar – faqat hodisa va narsalarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi guruhviy xususiyatlardir (transport vositalari, mevalar, ta'lim muassasalari, siyosiy tushunchalar, gullar, san'at janrlari, pedagogik tushunchalar, til nomlari va boshqalar) deb ta'kidlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson tafakkurining asosiy xususiyatlaridan biri – u atrofdagi borliqni, hodisalarni va obyektlarni anglash, ularni muayyan ma'noviy tartibga solish va bu tartibni til vositasida ifodalashga intilishidir. Bu jarayonda ikki asosiy kognitiv mexanizm – konseptualizatsiya (tushuncha shakllantirish) va kategorizatsiya (toifalarga ajratish) markaziy rol o'ynaydi. Aynan shu jarayonlar orqali inson o'z ongida mavjud bo'lgan tushunchaviy tuzilmalarni hosil qiladi va ularni til birliklari orqali ifoda etadi. Shuning uchun, konseptualizatsiya va toifalanish mexanizmlarini chuqur o'rganish – tushuncha va til birliklari o'rtasidagi murakkab munosabatni anglash yo'lida muhim qadamdir.

Konseptualizatsiya jarayoni orqali inson o'z idrokiga tushgan obyekt yoki hodisani muayyan umumlashtirish asosida ongda tasavvur qiladi, uni ichki ma'no bilan to'ldiradi. Bu ma'no, o'z navbatida, til orqali ifodalangunga qadar ongda “tushuncha” sifatida mavjud bo'ladi. Masalan, “daraxt” degan so'zning orqasida faqatgina bitta daraxt emas, balki turli shakl, rang, o'lcham va funksiyalarga ega bo'lgan daraxtlar haqidagi umumlashtirilgan konsept yotadi. Bu umumlashtirish – ya'ni konseptualizatsiya – inson tafakkurining borliqni tartibga soluvchi muhim qismidir.

Demak, konseptualizatsiya va kategorizatsiya jarayonlarini o'rganish inson ongida shakllanuvchi tushunchalar bilan ularni ifodalovchi til birliklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur anglash imkonini beradi. Ushbu bog'liqlikni tushunish esa tilshunoslik, psixologiya, kognitiv fanlar va madaniyatshunoslik sohalarida muhim ilmiy natijalar berishi mumkin. Xususan, til qanday qilib inson tafakkuridagi murakkab konseptual tuzilmalarni soddalashtirib, muloqotda foydalanishga qulay shaklga keltirishini anglashda bu jarayonlar asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, konseptualizatsiya va toifalanish inson tafakkurining asosiy mexanizmlari sifatida, til bilan uzviy bog'liq holda, tushuncha va ma'no tizimlarini shakllantirishda va ularni ifodalashda beqiyos rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Микешина Л.А. Категоризация как всеобщая процедура познавательной деятельности // Философия науки: учебное пособие. 2-е изд., перераб. и доп. М., 2006. С. 99
2. Rosch E. Principles of categorization. In D. J. Levitin (Ed.), Foundations of cognitive psychology: Core readings, 2002. – pp. 251–270.
3. Витгенштейн Л. Логико-философский трактат / Л. Витгенштейн // Избранные работы / Л. Витгенштейн; пер. В Руднева. – Москва: Территория будущего, 2005. – С. 13-222.
4. Хайдеггер, М. Бытие и время / М. Хайдеггер; пер. с нем. В. В. Бибихина. – Харьков: Фолио, 2003. – С. 73.
5. Фуко, М. Слова и вещи. Археология гуманитар. наук: пер. с фр. / М. Фуко. – Санкт-Петербург: А-сэд: Талисман, 1994. – С.30.
6. Guignard, J.-B. Linguistique Cognitive et modèles catégoriaux: Quelques considérations épistémologiques / J.-B. Guignard // Corela Cognition Représentation Langage. – 2011. – V. 9, № 2.
7. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика: введ. в когнитив. лингвистику: курс лекций / Н. Н. Болдырев; Тамбов. гос. ун-т им. Г. Р. Державина. – Тамбов: Изд-во ТГУ, 2014. – С.115.
8. Дзюба Е.В. Лингвокогнитивная категоризация действительности в русском языковом сознании: дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01, 10.02.19 / Е. В. Дзюба; Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2016. – С. 96, 464-465.
9. Delbecque N. Linguistique cognitive. Comprendre comment fonctionne le langage. Champs linguistiques / N. Delbecque. – Bruxelles: De Boeck-Duculot, 2006. – P. 35.
10. Попова, З. Д. Когнитивная лингвистика / З. Д. Попова, И. А. Стернин. М., 2007. – С. 90.
11. Лакофф Д. Женщины, огонь и опасные вещи: Что категории языка говорят нам о мышлении / Пер. с англ. И. Б. Шатуновского. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С.63.
12. Лакофф Дж. Мышление в зеркале классификаторов / Пер. с англ. Р.И.Розиной // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. Когнитивные аспекты языка. – М., 1988 – С. 12-51.